

Temirov Z.A.

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Andijon davlat universiteti

Abdumannobova X.I

Geografiya mutaxassisligi magistranti

Andijon davlat universiteti

**AHOLI O'LIMI DINAMIKASINI GEODEMOGRFIK O'RGANISH
(ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Andijon viloyatida aholi o'limi dinamikasi hamda uning hududiy tafovutlari o'rganilgan. Shuningdek, aholi o'limiga ta'sir qiluvchi geografik omillar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *O'lim jarayoni, aholi salmog'i, o'lim koeffitsenti, kasalliklar, o'rtacha umr, o'lim dinamikasi.*

Temirov Z.A.

Doctor of philosophy (PhD) in geography, associate professor

Andijan State University

Abdumannabova X.I

Graduate student of Geography

Andijan State University

**GEODEMOGRAPHIC STUDY OF POPULATION DEATH DYNAMICS
(IN THE CASE OF ANDIJAN REGION)**

Abstract: *In this article, the dynamics of population death in Andijan region and its regional differences are studied. Geographical factors affecting population mortality were also analyzed.*

Key words: *Death process, population weight, death rate, diseases, life expectancy, death dynamics.*

З.А.Темиров

Доктор философии (PhD) по географии, доцент

Андижанский государственный университет

ГЕОДЕМОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ДИНАМИКИ

СМЕРТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

(НА ПРИМЕРЕ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)

***Аннотация:** В данной статье изучена динамика смертности населения Андижанской области и ее региональные различия. Также были проанализированы географические факторы, влияющие на смертность населения.*


***Ключевые слова:** Процесс смертности, масса населения, смертность, болезни, продолжительность жизни, динамика смертности.*

O'lim jarayoni aholi takror barpo bo'lishining ikkinchi asosiy qismi bo'lib, avlodlar almashinuvida faol ishtirok etadi. O'lim jarayoni aholi salomatligi, ijtimoiy holati va yashash sharoitiga bevosita bog'liqdir. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy, ayniqsa tibbiy xizmat ko'rsatishning rivojlanishi bilan aholining umr ko'rish davri uzayib boraveradi. Bugungi davrda dunyo bo'yicha aholi o'lim ko'rsatkichlari Osiyo, Afrika, Amerika, Okeaniya hududlarida kamayib, Yevropa hududida esa, ortib borayotganligi kuzatiladi. Umuman, sayyoramiz aholisi orasida o'lim jarayoni XX asr ikkinchi yarmi - XXI asr boshlarida 2-2,5 marta kamaygan. Hozirgi davrda o'limga ekzogen omillar (organizmning qarishi va uning kasallanishi tufayli sodir bo'lgan ichki muhit omillari) sabab bo'lmoqda. Bu jarayon, ayniqsa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, turmush tarzining yaxshilanishi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning oshib borishi bilan bog'liq. Holbuki, Yevropa davlatlarida aholi o'lim ko'rsatkichlarining birmuncha ko'tarilishiga demografik omil, ya'ni aholi tarkibida qariyalar (60-65 yosh va undan yuqori) salmog'ining ortib borishi ta'sir etgan. Ma'lumki, aholi o'limining umumiy koeffitsienti aholining yosh tarkibiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Agar aholi tarkibida bolalar (0-14 yosh) va yoshlar (16- 29 yosh) ulushi yuqori bo'lsa, o'lim koeffitsienti kamayadi. Dunyoning juda ko'p davlatlarida XX asr boshlarida

aholi o'rtacha 35-40 yil umr ko'rgan bo'lsa, hozirgi vaqtda – o'rtacha 63-68 yosh umr ko'rishi kuzatiladi.

O'zbekistonda aholi salomatligi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida o'lim ko'rsatkichi pasayib bordi. Jumladan, Andijon viloyati tumanlarida 1991-2023 yillarda o'limning umumiy koeffitsiyenti har mingta aholiga nisbatan 6,2 kishidan 4,6 kishiga kamaydi. Vafot etganlar va aholi salmog'i mamlakat ko'rsatkichi bilan tengligi, tadqiq etilayotgan hudud o'lim jarayonlarini o'rganish o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar mavjud ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston aholisi o'lim ko'rsatkichlarining hududiy tafovutlarini tadqiqotchi N.J.Muxammedova o'zining doktorlik (PhD) dissertatsiyasida quyidagicha yoritgan. “Andijon viloyati aholi soni eng zich hudud bo'lib, turar joy bilan ta'minlanish darajasining pastligi, tug'ilishning qisqarishiga, asosiy mehnat resursi, ya'ni mehnatga layoqatli aholisining aksariyati boshqa viloyat va respublikalarda yashayotganligi, aholi tarkibida qariyalar salmog'ining ortib borayotganligi o'lim ko'rsatkichining ko'tarilib borilishiga olib kelmoqda”, deb ta'kidladi Z.Temirov doktorlik (PhD) dissertatsiyasida.

Andijon viloyati tumanlarida o'limning umumiy ko'rsatkichi davriy dinamikaga ega (1-rasm).



1-rasm. Andijon viloyati tumanlarida o‘lim koeffitsenti

Jumladan, 1991-1995 yillarda Andijon viloyatida o‘lim ko‘rsatkichi respublika ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan. O‘sha davrda Andijon viloyatida aholining og‘ir turmush sharoiti va tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasining past ekanligi asosiy omil sifatida qaraladi. Mamlakatda tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasida amalga oshirilgan islohotlar, aholi turmush darajasining ortib borishi natijasida o‘lim ko‘rsatkichi pasayib bordi. Jumladan, 1995-2009 yillarda Andijon viloyatida o‘lim darajasi, mamlakat o‘lim ko‘rsatkichidan past bo‘ldi. Andijon viloyatida shahar va tumanlarida ham o‘limning umumiy koeffitsiyentida hududiy tafovutlar ko‘zga tashlanadi. Viloyat markazlari va yirik shaharlarida aholi va transport tugunining zichligi, sanoat korxonalarining shahar va shahar atrofida joylashganligi sababli yuqori bo‘lib kelgan. So‘nggi yillarda o‘lim ko‘rsatkichi pasayib, so‘ngi 2020 yilda vodiya “yuqori” daraja kuzatilmadi. Dastlabki 1991 yilda Keyingi yillarda o‘limning “yuqori” darajasi kamayib, “o‘rtacha” va “past” darajalari ortib bordi. Jumladan, 1994 yilda birgina o‘limning “yuqori” darajasi kuzatilgan holos. Shu o‘rinda, 2020 yil pandemiya sharoitida o‘lim darajasi ortganligini ham e‘tiborga olish lozim.

Yillar mobaynida aholi o‘lim ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan hududlar, Andijon shaharlarida aholi zichligining yuqoriligi, transport tugunida joylashganligi, shuningdek, ekologik muvozanatning buzilishi bilan izohlash mumkin. So‘nggi yillarda ushbu shaharlarda ham aholi o‘lim darajasi pasayib bordi, shu bilan birga, boshqa tumanlarga nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasida, shu jumladan, Andijon viloyatlari aholi o‘limida eng katta salmoqni qon aylanish tizimi kasalliklari bilan vafot etganlar tashkil etdi (61,8 foiz). Ushbu kasallik bilan vafot etish darajasi mamlakat ko‘rsatkichidan yuqoriligi bilan ham dolzarb ahamiyatga ega. Keyingi o‘rinlarda o‘simtalar bilan vafot etish 7,9 foiz, nafas olish organlari kasalliklari bilan 6,9 foiz, ovqat hazm qilish organlari kasalliklari bilan 4,9 foiz, baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlanishlar bilan 4,1 foiz, yuqumli va parazitlar kasalliklari bilan 2,3 foiz va

boshqa sabablar bilan 12,1 foiz aholi vafot etmoqda. Mazkur kasalliklar jinsiy tarkib bo'yicha ham sezilarli farq kuzatiladi. Jumladan, qon aylanish tizimi kasalliklari bilan vafot etish erkaklarda 60,7 foiz bo'lsa, ayollarda 63,0 foizni tashkil etdi. Baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlanishlar bilan vafot etish erkaklarda 5,8 foiz va ayollarda 2,2 foizni tashkil etmoqda. O'simta kasalliklari bilan vafot etish erkaklarga nisbatan ayollarda ko'p o'chramoqda. Qon aylanish tizimi kasalliklari bilan vafot etayotganlar Andijon viloyatining Asaka, Marhamat, Bo'ston, Buloqboshi tumanlarida 65-70 foizni tashkil etmoqda. Baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlanish bilan Ulug'nor tumanlari nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega. O'zbekiston Respublikasida, shu jumladan, Andijon viloyati aholi o'limida eng katta salmoqni qon aylanish tizimi kasalliklari bilan vafot etganlar tashkil etdi (61,8 foiz). Ushbu kasallik bilan vafot etish darajasi mamlakat ko'rsatkichidan yuqoriligi bilan ham dolzarb ahamiyatga ega. Keyingi o'rinlarda o'simtalar bilan vafot etish 7,9 foiz, nafas olish organlari kasalliklari bilan 6,9 foiz, ovqat hazm qilish organlari kasalliklari bilan 4,9 foiz, baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlanishlar bilan 4,1 foiz, yuqumli va parazitlar kasalliklari bilan 2,3 foiz va boshqa sabablar bilan 12,1 foiz aholi vafot etmoqda. Mazkur kasalliklar jinsiy tarkib bo'yicha ham sezilarli farq kuzatiladi. Jumladan, qon aylanish tizimi kasalliklari bilan vafot etish erkaklarda 60,8 foiz bo'lsa, ayollarda 63,0 foizni tashkil etdi. Baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlanishlar bilan vafot etish erkaklarda 5,8 foiz va ayollarda 2,1 foizni tashkil etmoqda. O'simta kasalliklari bilan vafot etish erkaklarga nisbatan ayollarda ko'p uchramoqda.

Andijon viloyatida o'limning umumiy ko'rsatkichlari viloyat markazi Andijon shahrida yuqori bo'lishiga, aksincha, aholisi siyrak bo'lgan cho'l, tog' oldi va tog'li hududlarda joylashgan chekka tumanlarda past bo'lishiga geografik hamda ekologik omillar katta ta'sir ko'rsatgan.

Viloyatda qon aylanish tizimi kasalliklari bilan vafot etish sabablarini o'rganish va bu kasallikdan aholi o'limi darajasini kamaytirish tibbiyot sohasidagi asosiy muammolardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Bo‘rieva M.R. Demografiya asoslari. –T. 2001. –120 b.
2. Bo‘rieva M.R., Tojiev Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. –T.: Tafakkur, 2011. -160 b.
3. Soliev A., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografianing nazariy va amaliy masalalari. –T., 1999. –181 b.
4. Tojiev Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘shishi va joylanishi. T.: –2010. –276 b.
5. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. –T.: Nodirabegim, 2019. –254 b.
6. Temirov Z.A. O‘zbekistonning Farg‘ona mintaqasida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari (Monografiya). Andijon. “Hayot nashri-2020”, 2022. -158 b.
7. Temirov Z.A. Geodemografiya. Andijon. 2024 y. -B.180